

IMOM TERMIZIYNING “SHAMOILU-L-MUHAMMADIYYA” ASARIDA MUHAMMAD ALAYHISSALOM TAVSIFI

Jo‘rayeva O‘lmas Choriyevna

Termiz davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati” kafedrası mudiri, tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Tel: +998945850409

e-mail: jurayeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Imom Termiziyning mashhur “Shamoilu-l-Muhammadiyya” asarining tarixiy ahamiyati yoritilgan. Asarda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning axloqiy fazilatları, tashqi siymosi va hayotiy odatları haqida boy ma‘lumotlar keltiriladi. Maqolada ushbu asarning islom ilmlari, hadisshunoslik, ma‘naviyat va musulmon dunyosida diniy-ma‘rifiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, uning jahon ilmiy merosidagi ta‘siri va dolzarbligi haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Imom Termiziy, Shamoilu-l-Muhammadiyya, hadis, tarixiy ahamiyat, ma‘naviyat, islom ilmlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается историческое значение знаменитого труда Имама Тирмизи «Шамаил аль-Мухаммадийя». В этом произведении приводятся богатые сведения о нравственных качествах, внешнем облике и жизненных привычках Пророка Мухаммада (с.а.в.). В статье анализируется роль данного труда в развитии исламских наук, хадисоведения, духовности и религиозно-просветительских ценностей в мусульманском мире. Также освещается его влияние и актуальность в мировом научном наследии.

Ключевые слова: Имам Тирмизи, Шамаил аль-Мухаммадийя, хадис, историческое значение, духовность, исламские науки.

ABSTRACT

This article explores the historical significance of Imam al-Tirmidhi’s renowned work Shama’il al-Muhammadiyya. The book provides rich accounts of the Prophet Muhammad’s (peace be upon him) moral virtues, physical appearance, and daily habits. The paper analyzes the importance of this work in the development of Islamic sciences, hadith studies, spirituality, and religious-educational values within the Muslim world. Furthermore, it highlights the impact and relevance of the Shama’il in the broader context of global scholarly heritage.

Keywords: *Imam al-Tirmidhi, Shama'il al-Muhammadiyya, hadith, historical significance, spirituality, Islamic sciences.*

KIRISH.

Imom Termiziy (vaf. 894) hozirgi O'zbekiston hududidagi Termiz shahrida tavallud topgan. U "Kutub as-Sitta" muhaddislarining eng muhimlaridan biri sanaladi. Unda bir muhaddisda bo'lishi lozim bo'lgan hadislarni to'plash, tasniflash, yod olish va muzokara qilish fazilatlarini mujassamdir. Imom Termiziy o'zining mashhur "al-Jomi' as-Sahih / as-Sunan" asaridan tashqari, "al-Ilal al-Kabir", "al-Ilal as-Sag'ir", "Tasmiyat ashab an-Nabiy", "Kitab at-Tarix", "Kitab al-Asma va-l-Kuna" hamda "Kitab az-Zuhd" kabi muhim asarlar ham yaratgan. Imom Termiziyning "Shamoilu-l-Muhammadiyya" nomli asari "as-Sunan"dan keyin eng muhim o'rin tutadi. Nomi anglatib turganidek, "ash-Shamo'il" so'zi "xulq, tabiat, fe'l-atvor, axloq" kabi ma'nolarni ifodalaydi [3].

MATERIAL VA METODLAR.

"Shamo'il" atamasi hijriy III / milodiy IX asrdan boshlab, avvalo hadis, so'ng siyrat, tarix va tasavvufga oid asarlarda Payg'ambar (s.a.v.)ning inson sifatida tashqi qiyofasi, shaxsiy hayoti va axloqini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo'llanilgan. Imom Termiziyning "ash-Shamoil" asari esa tarixiy jarayonda bu sohada yaratilgan asarlarning eng mukammali sifatida qabul qilingan. Kitobdagi rivoyatlarning katta qismi sahih, ayrimlari hasan, ba'zilar esa zaif rivoyatlardan iborat ekani haqidagi qarashlar ustunlik qiladi [4].

"Ash-Shamoil" asaridagi rivoyatlar umumiy isnod darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, Payg'ambar (s.a.v.) tasavvurini uning tashqi qiyofasi va odob-axloqi orqali tanishga beqiyos hissa qo'shgan [2].

Mazkur asar Payg'ambar (s.a.v.)ning axloqi, ibodatlarini, ovqatlanishi va ichishi, yotishi va uyqusi, so'zlashi, kulishi va yig'lashi, kamtarligi, insonlar va oilasi bilan munosabatlari, ismlari, yoshi, vafoti, merosi, tushda ko'rilishi hamda uning sunnatiga ergashishning ahamiyati kabi masalalarga oid 415 rivoyatni o'z ichiga olgan 56 bobdan tashkil topgan [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Imom Termiziyning "Shamoil" asarida yuqorida zikr etilganidek, ko'plab boblar va rivoyatlar mavjud.

Yaratilish jihatidan insonning yuzi va badani qanday bo'lishiga hech kim – jumladan, Payg'ambarimiz ham ta'sir o'tkaza olmaydi. Shuningdek, yuz va tana shaklining shakllanishida ota-onadan meros bo'lgan genetik omillar, geografik sharoit va boshqa tashqi ta'sirlarning roli borligi ma'lum. Ayniqsa, Rasululloh

(s.a.v.)ning tug‘ma jihatlari, ya’ni o‘z ixtiyorlari bo‘lmagan xususiyatlarini hadislarni to‘g‘ri tushinishda va Payg‘ambar tasavvurini Qur‘on markazida shakllantirishda inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Imom Termiziyning “ash-Shamoil al-Muhammadiyya” asarida Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning tashqi qiyofasi, risolat davri va vafotiga oid ma’lumot beruvchi Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.)ning bo‘ylari haddan tashqari uzun ham, kalta ham emas edi. Tanalari sutday oppoq ham, to‘q rangda ham emas edi. Sochi haddan tashqari jingalak ham, mutlaqo tekis ham emas edi. Qirq yoshga yetganlarida Alloh ul zotni Payg‘ambar qilib yubordi. O‘n yil Makka, o‘n yil Madinada yashadi. Oltmish yoshga yetgach, Alloh uni oxiratga olib ketdi. Vafot qilganlarida soch va soqollarida yigirmata ham oq tola yo‘q edi” [3].

Bu rivoyatda Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning bo‘yi, tanasi, vafot chog‘idagi sochidagi oq tolalar soni, risolat davri va umr yoshi haqida ma’lumot berilgan. Shunga o‘xshash yana bir rivoyatda Anas ibn Molik shunday deydi: “Rasululloh (s.a.v.) o‘rtacha bo‘yli bo‘lib, na uzun, na kalta edilar. Badanlari har jihatdan go‘zal edi. Sochlari na jingalak, na mutlaqo tekis edi. Tanalari biroz pushtirang oq bo‘lib, nuroniy edilar. Oldinga egilib yurganlarida odimlari jadal edi” [3].

Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning “uzunga yaqin o‘rtacha bo‘yli” bo‘lishi haqida turli sharhlar qilingan. Ba’zi rivoyatlarda ul zotni ko‘rganlar dastlab o‘rtacha bo‘yli deb o‘ylaganlari, biroq sinchiklab qaraganlarida bo‘ylari uzunga yaqin ekanini sezganlari ta’kidlanadi va bu holat ba’zilar tomonidan mo‘jiza sifatida baholangan. Biroq masalaning mo‘jiza sifatida talqin qilinishi munozaralidir. Chunki Hz. Payg‘ambar (s.a.v.) risolat vazifasini bo‘y balandligi yoki pastligi orqali ado etmagan. Shunday ekan, bo‘yning uzun yoki kalta bo‘lishi diniy jihatdan mo‘jiza bilan bog‘liq emas [3].

Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning tanalari haqida Imom Termiziyning “Shamoil”ida Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.)ning tanalari na sutday oq, na qoramtir edi...”

Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning shamoiliga oid rivoyatlarda uning badani haqida ham ma’lumotlar mavjud. Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan hadisda: “... Vujudlari go‘zal edi ...” – deyiladi [3].

Bu rivoyatda zikr etilgan “hasanu-l-jism” iborasini ba’zi sharhlovchilar “xushchaqchaq va baxtiyor, his va aql jihatidan mukammal” sifatida izohlashgan. Boshqalar esa bu ifoda orqali Payg‘ambar (s.a.v.)ning barcha a’zolari uyg‘un va mutanosib bo‘lganini, go‘zal bir mo‘tadil jismoniy tuzilishga ega ekanini ta’kidlaganlar.

Imom Termiziyning “Shamoil” asarida Rasululloh (s.a.v.)ning qo‘llari, oyoqlari, boshi va tanasining umumiy xususiyatlarini tasvirlovchi rivoyatlar ham mavjud. Masalan, Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi:

“Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning bo‘ylari na uzun va na qisqa, balki o‘rtacha bo‘yli edilar. Kaftlari va oyoq taglari keng edi. Boshlarining shakli katta, suyaklari baquvvat edi. Ko‘krakdan kindikkacha bo‘lgan qismida tuklari bor edi. Ular go‘yo baland joydan tushayotgandek odim tashlardilar. Men tirikligida ham, vafotidan keyin ham uning misliga guvoh bo‘lmadim” [3].

Bundan tashqari, Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda: “Men atlas yoki ipakdan ham ko‘ra Rasululloh (s.a.v.)ning qo‘lidan yumshoq narsaga tegmaganman”, – deyiladi.

Ushbu rivoyatlardan ko‘rinib turibdiki, Hz. Payg‘ambar (s.a.v.)ning yaqinida bo‘lgan sahobalar u kishini jismoniy sifatlari bilan ham tasvirlashgan va ularning rivoyatlari orqali Rasululloh (s.a.v.)ning tashqi qiyofasi haqidagi muhim ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan [5].

XULOSA.

Imom Termiziyning “Shamoilu-l-Muhammadiyya” asari islom ilm-fani va ma’naviyat tarixida yuksak ahamiyatga ega bo‘lgan nodir manbalardan biridir. Unda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tashqi qiyofalari, xulqlari, odatlari, turmush tarzi va insoniy fazilatlarini turli sahobalar rivoyatlari asosida keng yoritilgan. Bu rivoyatlar Payg‘ambar alayhissalomning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki u zotning samimiyligi, mehribonligi va odilligi kabi yuksak insoniy fazilatlarini ham ochib beradi. Asar Ali ibn Abu Tolib va Anas ibn Molik kabi sahobalarning guvohliklari, Rasululloh alayhissalomning hayoti bilan bevosita aloqador bo‘lgan insonlarning kuzatuvlari sifatida ishonchli tarixiy manba vazifasini bajaradi.

Asarning tarixiy ahamiyati shundaki, u musulmon ummatiga Rasululloh alayhissalomning timsolini yanada yaqinroq tasavvur qilish imkonini bergan, u zotning shaxsiy fazilatlarini asrlar davomida musulmonlar ongida jonli holda saqlab kelgan. “Shamoil” hadis ilmi doirasida alohida yo‘nalishni shakllantirib, keyingi davrlarda yozilgan ko‘plab “shamoil” va “siyar” asarlariga asos bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, mazkur kitob musulmon adabiyoti va tasavvufiy tafakkur rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan, chunki unda payg‘ambarga xos kamolot va axloqiy go‘zallik badiiy obraz darajasida ifodalangan.

Bugungi kunda ham “Shamoilu-l-Muhammadiyya” diniy-ma’rifiy faoliyatda, ilmiy-tadqiqot ishlarida va tarbiyaviy jarayonlarda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U yoshlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratini namoyon qilish, islomiy axloqni shakllantirish hamda milliy va diniy o‘zlikni mustahkamlashda muhim

manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Aytish mumkinki, Imom Termiziy merosi, xususan, “Shamoilu-l-Muhammadiyya” asari diniy-ma’rifiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazishda, islom madaniyati va ma’naviy hayotini boyitishda beqiyos ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akyuz Huseyin. Termiziyning ustozi Buxoriyga hadislarni to‘g‘rilash haqida bergan savollari (Sunan kontekstida bir tahlil). Xalqaro Simpozium: Markaziy Osiyo olimlarining Islom tamadduniga qo‘shgan hissasi, – Bishkek. 2019. – B. 469–486.
2. Molik Ibn Anas. Al-Muvatto. – Istanbul: Chaqri Nashriyoti, 1992.
3. Termiziy Abu Iso Muhammad ibn Iso. Ash-Shamoilu-l-Muhammadiyya. (nashr: Muhammad Avvoma). – Madina: Daru-l-Yusro, 2001.
4. Termiziy Abu Iso Muhammad ibn Iso. Sunan. (tah. Ahmad Muhammad Shokiy). – Qohira: Maktabatu va Matbaatu Mustafo, 1975.
5. Uvatov U. Imom Termiziy. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov, 2021. – 104 b.